Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan institutsional muammolar hamda ularni bartaraf etishning innovatsion yondashuvlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy-institutsional cheklovlar, kredit va moliyalashtirishga kirishning murakkabligi, garov ta'minotining yetishmovchiligi, infratuzilma nomutanosibliklari, mehnat bozorida informallik, malaka yetishmovchiligi hamda mahalliy boshqaruv samaradorligining pastligi kabi strukturaviy to'siqlar chuqur ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada oilaviy tadbirkorlikni modernizatsiyalashda raqamli texnologiyalar, platforma iqtisodiyoti, kooperatsiya klasterlari, aqlli moliyalashtirish mexanizmlari (smart crediting), inkubatsiya ekotizimlari hamda davlat-xususiy sheriklik asosidagi yangi institutlarning ahamiyati asoslab beriladi. Analitik xulosalar innovatsion boshqaruv modelini shakllantirish, institutsional risklarni kamaytirish va oilaviy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun zarur bo'lgan konseptual asosni yaratadi.

Kalit so'zlar: oilaviy tadbirkorlik, institutsional muammolar, innovatsion yondashuvlar, huquqiy cheklovlar, moliyaviy inklyuziya, raqamli transformatsiya, klasterlashuv, platforma iqtisodiyoti, davlat-xususiy sheriklik, tadbirkorlik infratuzilmasi.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the institutional challenges that arise in the development of family entrepreneurship, as well as innovative approaches to overcoming them. The study examines key structural barriers, including legal and institutional constraints, limited access to credit and financing, insufficient collateral, infrastructural disparities, labor market informality, skills shortages, and low effectiveness of local governance. Furthermore, the article substantiates the significance of digital technologies, platform economy models, cooperative clusters, smart crediting mechanisms, incubation ecosystems, and public-private partnership institutions in the modernization of family entrepreneurship. The analytical conclusions provide a conceptual foundation for building an innovative governance model, reducing institutional risks, and ensuring the sustainable development of family-based enterprises.

Key words: family entrepreneurship, institutional challenges, innovative approaches, legal constraints, financial inclusion, digital transformation, clustering, platform economy, public-private partnership, entrepreneurial infrastructure.

Аннотация. В данной статье системно анализируются институциональные проблемы, возникающие в процессе развития семейного предпринимательства, а также инновационные подходы к их устранению. В исследовании подробно рассматриваются такие структурные барьеры, как правовые и институциональные ограничения, сложность доступа к кредитам и финансированию, недостаточность залогового обеспечения, инфраструктурные дисбалансы, высокий уровень неформальности на рынке труда, дефицит квалификации и низкая эффективность местного управления. Кроме того, в статье обоснована значимость цифровых технологий, платформенной экономики, кооперационных кластеров, интеллектуальных механизмов финансирования (smart crediting), инкубационных экосистем и институтов государственно-частного партнёрства в модернизации семейного предпринимательства. Аналитические выводы формируют концептуальную основу для создания инновационной модели управления, снижения институциональных рисков и обеспечения устойчивого развития семейного предпринимательства.

Ключевые слова: семейное предпринимательство, институциональные проблемы, инновационные подходы, правовые ограничения, финансовая инклюзия, цифровая трансформация, кластеризация, платформенная экономика, государственно-частное партнёрство, предпринимательская инфраструктура.



KIRISH

Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini so'nggi yillarda global miqyosda tobora ortib bormoqda. Uning institutsional asoslari va samaradorligini ta'minlovchi omillarni o'rganish xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDG–1) kambag'allikni barcha shakllarda tugatish ustuvor vazifa etib belgilangan bo'lib, bunda oilaviy tadbirkorlik iqtisodiy inklyuziya, ijtimoiy himoya, daromadlar barqarorligi hamda bandlikni oshirishda strategik rol o'ynashi alohida ta'kidlanadi [1]. Oilaviy tadbirkorlikning muhim afzalligi shundaki, u nisbatan past boshlang'ich kapital talab etadi, uy xo'jaligi sharoitida tashkil etilishi mumkin, iqtisodiy sharoitlar o'zgarishiga tez moslashadi hamda demografik bosim yuqori bo'lgan hududlarda yangi bandlik imkoniyatlarini yaratadi. Jahon banki tadqiqotlarida oilaviy tadbirkorlik iqtisodiy zarbalarga chidamlilikni oshiruvchi, norasmiy bandlikning qisqarishiga xizmat qiluvchi va o'rta sinf shakllanishining muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi [2].

Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlikning imkoniyatlari institutsional muhit yetarli darajada takomillashmagan sharoitda to'liq ro'yobga chiqmaydi. OECDning "Inclusive Growth" modeli institutsional omillarni rivojlanishni jadallashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega deb baholab, mahalliy iqtisodiy siyosatni modernizatsiya qilish orqali oilaviy tadbirkorlikni kuchli iqtisodiy drayverga aylantirish mumkinligini ko'rsatadi [3]. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, huquqiy tartib-taomillarni soddalashtirish, kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, garov ta'minoti mexanizmlarini takomillashtirish, mehnat bozorida rasmiy bandlikni rag'batlantirish, infratuzilmani muvozanatli rivojlantirish hamda mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirish oilaviy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. ILOning "Decent Work" konsepsiyasida, xususan, ayollar va yosh tadbirkorlarning rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlashda institutsional tizimni moslashuvchanlashtirish muhim vazifa sifatida qayd etiladi [4].

Qishloq hududlari kontekstida FAO tomonidan olib borilgan tadqiqotlar oilaviy xo'jaliklar infratuzilma, bozor talabi va resurslar imkoniyatlari cheklangan sharoitda ham iqtisodiy barqarorlikning muhim tayanchlaridan biri ekanini ko'rsatadi [5]. Shu bois oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish, mahalliy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish hamda kambag'allikni strukturaviy darajada qisqartirishga samarali hissa qo'shadi. Buning uchun institutsional tizimning moslashuvchanligini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, kooperatsiya klasterlarini rivojlantirish va davlat–xususiy sheriklik asosidagi zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida so'nggi yillarda qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kredit mexanizmlarining soddalashtirilishi, garov talablarining yumshatilishi, "Hokim yordamchisi" instituti joriy etilishi, iqtisodiy rivojlanish markazlari hamda ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash jamg'armalarining tashkil etilishi, shuningdek, raqamli platformalar orqali arizalarni qabul qilish tizimining yo'lga qo'yilishi ushbu yo'nalishda muhim qadamlar bo'ldi. Bu mexanizmlar oilaviy tadbirkorlik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirib, tadbirkorlik muhitining yanada qulaylashuviga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim ma'muriy jarayonlarni yanada optimallashtirish, biznesni boshlash bosqichidagi transaksion xarajatlarni kamaytirish va mikromoliyaviy infratuzilmani hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Shu munosabat bilan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi institutsional muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish bugungi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning dolzarbligi ham aynan shunda namoyon bo'ladi: oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi transformatsion rolini kuchaytirish uchun mavjud institutsional tizimni modernizatsiya qilish, yangi boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda raqamli iqtisodiy yechimlardan samarali foydalanish orqali umumiy samaradorlikni oshirish talab etiladi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga, balki hududiy barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy inklyuziyani kengaytirish va kambag'allikni barqaror qisqartirishga ham xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi institutsional muammolar va ularni bartaraf etishning innovatsion yondashuvlarini o'rganish iqtisodiyot fanida alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Turli nazariy maktablar, xalqaro tadqiqotlar va empirik ishlanmalar ushbu jarayonning murakkab, ko'p qatlamli tuzilmasini yoritadi. Xususan, Banerjee va Duflo tomonidan olib borilgan mikroiqtisodiy eksperimental tadqiqotlar oilaviy tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishda samarali instrument bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi, shu bilan birga uning institutsional muhitga sezgirligini ham ta'kidlaydi. Mualliflar hukumat siyosatining moslashuvchanligi va moliyaviy resurslarning mavjudligi oilaviy tadbirkorlik samaradorligida hal qiluvchi rol o'ynashini asoslaydilar [6]. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar uy xo'jaliklari mehnati va kichik kapital ko'pincha rasmiy iqtisodiyotga yetarli darajada integratsiyalanmaganini qayd etib, rasmiylashtirish jarayonlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.



Institutsional iqtisodiyot doirasida De Soto oilaviy tadbirkorlik uchun rasmiy mulkchilik huquqlarini mustahkamlash kreditga kirish imkoniyatlarini kengaytirishi va investitsion faollikni rag'batlantirishi mumkinligini ilmiy asoslaydi [7]. Uning yondashuviga ko'ra, mulk huquqlarining rasmiylashtirilishi jamg'arma to'plash salohiyatini oshiradi, aktivlarning kapitalga aylanishini tezlashtiradi hamda moliyaviy tizim bilan integratsiyani kuchaytiradi. Bu qarash oilaviy tadbirkorlikni institutsional transformatsiyaning muhim elementi sifatida talqin etadi.

OECDning "Inclusive Entrepreneurship" modelida oilaviy tadbirkorlik hududiy iqtisodiy tafovutlarni yumshatish, ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi daromad farqlarini qisqartirish va resurslari cheklangan guruhlarni iqtisodiy jarayonga faol jalb etishning samarali mexanizmi sifatida baholanadi [8]. OECD tadqiqotlarida iqtisodiy o'sishning inklyuzivligi institutsional tizim sifati bilan bevosita bog'liqligi ko'rsatilib, mos siyosiy-iqtisodiy muhit yaratilganda oilaviy tadbirkorlikning ijobiy ta'siri sezilarli darajada kuchayishi ta'kidlanadi. Jahon bankining "Doing Business" hamda "Poverty and Shared Prosperity" hisobotlarida esa kreditlash jarayonlarini soddalashtirish, garov mexanizmlarini takomillashtirish va ro'yxatdan o'tish tartiblarini optimallashtirish oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning muhim yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi [9]. Bu choralar, ayniqsa, qishloq hududlarida tadbirkorlik faolligini yanada rag'batlantirishga xizmat qilishi mumkin.

ILO tadqiqotlari oilaviy tadbirkorlikni mehnat bozorida rasmiy bandlikni kengaytirish, ayollar va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga ko'maklashuvchi muhim mexanizm sifatida baholaydi [10]. "Decent Work" konsepsiyasi doirasida oilaviy tadbirkorlikni rasmiylashtirish mehnat huquqlarini mustahkamlash, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish, malaka oshirish tizimini rivojlantirish va barqaror bandlikni ta'minlash uchun qulay sharoit yaratishi qayd etiladi. Bu yondashuv institutsional islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ham ochib beradi.

FAOning qishloq hududlaridagi oilaviy xo'jaliklarga bag'ishlangan global tahlillari oilaviy tadbirkorlik iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim institut ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bozor infratuzilmasini rivojlantirish, logistika zanjirlarini takomillashtirish va texnologik resurslardan foydalanishni kengaytirish orqali ushbu institutning samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligi ta'kidlanadi [11]. Shu nuqtayi nazardan, aqlli moliyalashtirish (smart crediting), raqamli kooperatsiya platformalari va agroservis markazlari kabi innovatsion yechimlar qishloq hududlarida oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning istiqbolli yo'nalishlari sifatida baholanadi.

Portnering klasterlashuv nazariyasi hududiy kooperatsiya, resurslar almashinuvi va bilimlar tarqalishi uchun qulay institutsional muhit yaratish oilaviy tadbirkorlik samaradorligini oshirishini ilmiy asoslaydi [12]. Klasterlashuv kichik ishlab chiqarish, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va uy xo'jaligi faoliyatlarida iqtisodiy sinergetikani kuchaytirib, biznes barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Sachsning barqaror rivojlanish modellari oilaviy tadbirkorlikni mikro darajadagi iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhim drayver sifatida baholab, uning natijalari institutsional tizim sifati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi [13].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda Tulyaganov hududiy tadbirkorlikning institutsional omillarini tahlil qilib, kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish, malaka oshirish tizimini rivojlantirish, infratuzilmani muvozanatli takomillashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish oilaviy tadbirkorlik rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi [14]. Isroilova ayollar tadbirkorligi orqali oilaviy biznesning ijtimoiy kapitalni shakllantirishdagi rolini yoritib, institutsional qo'llab-quvvatlash kuchaytirilganda ayollar biznesining o'sish sur'atlari sezilarli darajada jadallashishini ko'rsatadi [15].

Umuman olganda, adabiyotlar oilaviy tadbirkorlik rivojida institutsional omillar makro, mezo va mikro darajalarda o'zaro bog'liq tizimni tashkil etishini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni samarali hal etishda raqamli texnologiyalar, platforma iqtisodiyoti, klasterlashuv, smart-moliyalashtirish hamda biznes-inkubatsiya ekotizimlari muhim innovatsion mexanizmlar sifatida qaraladi. Natijada oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy transformatsiyadagi roli yanada kuchayib, u hududiy rivojlanishning barqaror institutsional tayanchlaridan biriga aylanib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi institutsional muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishning innovatsion yondashuvlarini asoslash maqsadida ko'p bosqichli, kombinatsiyalashgan (mixed-method) metodologik yondashuv qo'llanildi. Birinchi bosqichda nazariy-metodologik asoslar shakllantirildi hamda iqtisodiy institutlar nazariyasi, tranzaksiyon xarajatlar modeli, inklyuziv o'sish konsepsiyasi, klasterlashuv nazariyasi, platforma iqtisodiyoti konsepsiyasi va barqaror rivojlanish paradigmasiga tayangan holda konseptual tahlil amalga oshirildi. Xalqaro tashkilotlar — BMT, Jahon banki, OECD, ILO va FAO — tomonidan taqdim etilgan hisobotlar kontent-tahlil (content analysis) usuli orqali qayta ishlanib, oilaviy tadbirkorlikni cheklovchi institutsional omillar (huquqiy tartib-taomillar, kredit ta'minoti, bozor infratuzilmasi, rasmiylashtirish jarayonlari va mehnat bozori sharoitlari) mantiqiy jihatdan tizimlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda empirik tadqiqot metodlari qo'llanilib, oilaviy tadbirkorlikning institutsional muammolarini real iqtisodiy sharoitda baholash maqsadida bir nechta usullar integratsiya qilindi. Jumladan, Namangan viloyati



misolida 2017-2024-yillar davrida hududlar kesimidagi statistik ma'lumotlar asosida vaqt qatorlari (time-series) va panel ma'lumotlar (panel data) tahlili o'tkazildi. Shuningdek, institutsional cheklovlar ta'sirini aniqlashda ko'p omilli regressiya modellari (OLS, Fixed Effects, Random Effects) qo'llanildi, endogenlik muammosini bartaraf etish uchun instrumental o'zgaruvchilar (IV) yondashuvidan foydalanildi hamda natijalar robust standart xatolar bilan baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda 2017-2024-yillar davomida Namangan viloyati va uning tumanlarida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi, bandlikka qo'shgan hissasi hamda yalpi daromad shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda baholanadi. Ushbu davr iqtisodiyotning modernizatsiya jarayonlari, demografik yuklamaning oshishi, mehnat bozorida strukturaviy o'zgarishlar va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar bilan uyg'un kechganligi sababli, olingan natijalar mazkur sektorning hududiy iqtisodiyotdagi transformatsion rolini yanada chuqurroq yoritadi. Jadval ma'lumotlari va statistik modellashtirish natijalari asosida subyektlar sonidagi o'sish, bandlik yaratish imkoniyatlari hamda oilaviy tadbirkorlikning daromad shakllanishiga ta'siri raqamlar bilan asoslab berilib, mintaqalar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, bo'limda oilaviy tadbirkorlikning hududlar bo'yicha rivojlanish sur'atlari iqtisodiy infratuzilma darajasi, bozor sig'imi, kredit resurslariga kirish imkoniyatlari, mehnat resurslarining sifat ko'rsatkichlari hamda demografik tarkib bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Olingan natijalar oilaviy tadbirkorlik mintaqada inklyuziv iqtisodiy o'sishni jadallashtiruvchi, o'z-o'zini band qilishni kengaytiruvchi va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi barqaror iqtisodiy institut sifatida tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Oilaviy tadbirkorlikka ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd so'm)¹

Hudud	2017	2019	2021	2023	2024
Namangan sh.	18,2	42,5	96,3	148,7	201,4
Chust	6,5	15,8	34,2	52,6	70,3
Kosonsoy	7,1	17,0	39,5	60,4	80,1
Pop	9,4	23,6	51,8	77,9	104,5
Uychi	5,2	12,4	28,6	44,1	61,2
Chortoq	4,7	11,8	26,2	39,5	54,7
Uchqo'rg'on	4,1	10,5	24,0	36,3	50,2
Mingbuloq	3,3	8,2	18,7	29,4	42,6
Yangiqo'rg'on	4,5	11,3	25,1	38,6	53,8
Norin	4,1	9,7	21,4	31,8	45,6
To'raqo'rg'on	4,9	12,3	27,6	41,1	58,2
Jami	71,9	175,1	413,4	600,4	822,6

2017-2024-yillar davomida Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish hajmining 71,9 mlrd so'mdan 822,6 mlrd so'mga yetishi kreditlash ko'lamining 11,4 baravarga kengayganini ko'rsatadi. Ushbu sezilarli o'sish mintaqada iqtisodiy faollikning ortishi, mikro va oilaviy biznes tarmoqlarining kengayishi hamda imtiyozli kredit dasturlarining real sektor bilan integratsiyalashuv darajasi oshganidan dalolat beradi. Eng yuqori kreditlash hajmi Namangan shahrida qayd etilib, u 2017-yildagi 18,2 mlrd so'mdan 2024-yilda 201,4 mlrd so'mga yetgan, ya'ni qariyb 10 baravarlik o'sish kuzatilgan. Pop, Kosonsoy va Chust tumanlarida ham kredit hajmi mos ravishda 9,4 → 104,5 mlrd so'm, 7,1 → 80,1 mlrd so'm hamda 6,5 → 70,3 mlrd so'mga oshgan bo'lib, bu hududlarda aholining biznes boshlash faolligi, infratuzilma qulayligi va bozor sig'imining yetarli darajada shakllanganini ko'rsatadi. Periferik tumanlar — Mingbuloq, Uchqo'rg'on va Norin — kredit hajmi bo'yicha nisbatan past ko'rsatkichlarga ega bo'lsa-da, ularda o'sish sur'atlarining yuqoriligi iqtisodiy faollikning bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini tasdiqlaydi.

Kreditlash dinamikasidagi bunday o'sish hududiy iqtisodiyotning transformatsiya jarayonlarini yaqqol aks ettiradi. Xususan, xizmatlar sektori, uy sharoitidagi ishlab chiqarish, mikrokooperatsiya va hunarmandchilik yo'nalishlari kredit resurslarining asosiy iste'molchisi sifatida shakllanmoqda. Tahlil natijalari kreditlashning kengayishi daromadlar barqarorligini mustahkamlash, o'z-o'zini band qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kambag'allikning qayta ishlab chiqarilish mexanizmini izdan chiqarishda muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi. Hududlar kesimidagi tafovutlar esa kredit infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, transport-logistika

¹ Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmalari.



imkoniyatlari, mahalliy boshqaruvning institutsional samaradorligi va aholining iqtisodiy motivatsiyasi bilan bevosita bog'liq. Natijada, 1-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish mintaqada nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtirayotganini, balki inklyuziv rivojlanishning barqaror modeliga aylanib borayotganini ilmiy jihatdan asoslab beradi (2-jadval).

2-jadval. Oilaviy tadbirkorlikning asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha taqsimoti (%)²

Yillar	Ishlab chiqarish	Xizmatlar	Savdo	Qishloq xo'jaligi
2017	18	32	24	26
2019	19	35	25	21
2021	21	37	23	19
2023	23	39	22	16
2024	24	41	21	14

2017-2024-yillar davomida oilaviy tadbirkorlikning faoliyat tarmoqlari bo'yicha tarkibiy tuzilmasi mintaqada iqtisodiy transformatsiya jarayonlarining jadallashganini ko'rsatadi. Xizmatlar ulushining 2017-yildagi 32 foizdan 2024-yilda 41 foizga oshishi Namangan viloyatida xizmatlar bozorining izchil kengayib borayotganini, aholi tomonidan iste'mol qilinadigan maishiy, transport, go'zallik, ta'lim va kichik servis xizmatlarining hajmi hamda sifati ortayotganini anglatadi. Ishlab chiqarish segmentining 18 foizdan 24 foizgacha ko'tarilishi oilaviy tadbirkorlikning qiymat yaratish jarayoniga faolroq qo'shilayotganini, kichik sexlar, hunarmandchilik va oila negizidagi texnologik jarayonlar izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Savdo ulushining 24 foizdan 21 foizga biroz qisqarishi bozorning tabiiy diversifikatsiyasini aks ettirib, iqtisodiy faoliyatning savdo markazlashuvidan xizmatlar va ishlab chiqarish yo'nalishlariga siljiyotganini tasdiqlaydi. Qishloq xo'jaligi ulushining 26 foizdan 14 foizga kamayishi esa agrar sektorning iqtisodiyotdagi ahamiyati pasayganini emas, balki oilaviy tadbirkorlikning yangi iqtisodiy segmentlarga faol kengayib borayotganini ifodalaydi.

Faoliyat tarmoqlaridagi bunday siljish iqtisodiy modernizatsiyaning chuqurlashib borayotgan bosqichini anglatadi. Xizmatlar sektorining kengayishi urbanizatsiya jarayonlari, ichki bozor talabi, infratuzilmaning yaxshilanishi va aholi daromadlarining oshishi bilan bevosita bog'liq. Ishlab chiqarish ulushining ortishi esa mikroinnovatsiyalarni joriy etish, texnologiyalarni moslashtirish, kichik kooperatsiyani rivojlantirish hamda mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligi ulushining qisqarishi tarmoqning iqtisodiyotdagi o'rni kamayganini anglatmaydi, balki oilaviy tadbirkorlikning daromad manbalarini diversifikatsiya qilayotganini ko'rsatadi.

Bu jarayon mehnat bozorining moslashuvchanligini oshiradi, daromadlar diversifikatsiyasini kuchaytiradi hamda hududlar bo'yicha kambag'allik intensivligini kamaytirishga xizmat qiladi.

Oilaviy tadbirkorlikning yalpi investitsiya hajmi Namangan viloyati va uning tumanlarida kapital qo'yilmalar dinamikasini baholash uchun muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ko'rsatkichlar oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy transformatsiyadagi o'rni, kichik ishlab chiqarish va xizmatlar tarmoqlarining kengayish imkoniyatlarini, shuningdek, investitsiya oqimlarining hududlar kesimidagi farqlarini aniqlash imkonini beradi. Investitsiya hajmining vaqt bo'yicha o'zgarishi mintaqadagi kapital jamg'arish jarayonining intensivligini, moliyaviy resurslarning mavjudligini va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xatarlarga moslashuvchanlik darajasini aks ettirib, hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sish salohiyatini baholashda muhim indikator sifatida namoyon bo'ladi (3-jadval).

3-jadval. Oilaviy tadbirkorlikning yalpi investitsiya hajmi (mlrd so'mda)³

Hudud	2017	2019	2021	2023	2024
Namangan sh.	22,4	34,2	57,8	86,3	102,4
Chust	7,8	12,1	20,3	30,4	38,1
Kosonsoy	8,4	13,0	22,5	33,7	41,0
Pop	10,2	16,4	26,8	40,5	48,9
Uychi	5,6	9,2	15,6	24,3	31,4
Chortoq	4,9	8,5	14,2	21,7	27,3
Uchqo'rg'on	4,4	7,5	12,8	19,4	25,6

2 Manba: Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari hamda muallif hisob-kitoblari asosida modellashtirilgan tahliliy ma'lumotlar.

3 Manba: Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmalari.



Mingbuloq	3,7	6,4	10,4	16,1	21,5
Yangiqo'rg'on	4,2	7,8	13,6	21,3	28,2
Norin	3,9	7,0	12,0	18,5	24,8
To'raqo'rg'on	4,8	8,6	14,7	22,5	30,9
Jami	80,3	132,7	231,1	354,7	420,1

2017-2024-yillarda oilaviy tadbirkorlikning yalpi investitsiya hajmining 80,3 mlrd so'mdan 420,1 mlrd so'mga yetishi investitsion faollikning 5,2 baravarga oshganini ko'rsatadi. Ushbu tendensiya viloyat iqtisodiy muhitida oilaviy tadbirkorlikning strategik ahamiyati tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Eng katta investitsiya oqimi Namangan shahriga to'g'ri kelib, bu hududda xizmatlar sektori, kichik ishlab chiqarish va oilaviy klasterlashuv jarayonlari izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Pop va Kosonsoy tumanlarida investitsiya hajmining barqaror o'sishi mazkur hududlarda iqtisodiy infratuzilmaning mustahkamlanayotganini, kreditlash tizimi imkoniyatlarining kengayayotganini hamda bozor imkoniyatlaridan foydalanish darajasi ortayotganini anglatadi. Mingbuloq, Uchqo'rg'on va Norin tumanlarida investitsiya hajmi nisbatan past bo'lishiga qaramay, 5–6 baravarlik o'sish sur'atlari iqtisodiy faollikning periferik hududlarga bosqichma-bosqich tarqalayotganini va bu hududlarda yangi biznes segmentlari shakllanayotganini ko'rsatadi.

Investitsiya oqimlarining bunday kengayishi oilaviy tadbirkorlikning kapitallashuv darajasi oshayotganini, faoliyat tarmoqlari diversifikatsiyalanayotganini hamda iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanayotganini anglatadi. Yangi investitsiyalar hududiy iqtisodiyotga qo'shimcha qiymat olib kiradi, mahsulot va xizmatlar bozorini kengaytiradi, bandlikni oshiradi va uy xo'jaliklarining moliyaviy mustaqilligini kuchaytiradi. Shuningdek, investitsiyalarning ko'payishi ko'plab oilaviy bizneslarda texnologiyalarni yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda xizmatlar sifatini yaxshilash uchun qulay sharoit yaratdi. 3-jadval ma'lumotlari viloyatda oilaviy tadbirkorlik rivojlanishning yanada yuqori bosqichiga o'tayotganini va hududlar iqtisodiy tizimida endogen o'sish drayverlaridan biriga aylanib borayotganini tasdiqlaydi.

Bu esa kambag'allikning strukturaviy asoslarini zaiflashtirish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modelini shakllantirish uchun muhim zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2017-2024-yillarda Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlik rivojlanish dinamikasi, uning kreditlash, investitsiya oqimlari va faoliyat tarkibidagi o'zgarishlarini chuqur tahlil qilish ushbu sektorning hududiy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Olingan natijalar oilaviy tadbirkorlikning nafaqat uy xo'jaliklari uchun daromad manbai sifatidagi funksiyasini, balki mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlovchi, mehnat bozori moslashuvchanligini oshiruvchi hamda kambag'allikni qisqartirishning samarali iqtisodiy-institutsional mexanizmi sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi. Tadqiqot mintaqada iqtisodiy transformatsiya jarayoni izchil davom etayotganini, oilaviy tadbirkorlik esa bu jarayonning muhim drayverlaridan biriga aylanayotganini ko'rsatdi.

Birinchiidan, sakkiz yil davomida kredit hajmining 71,9 mlrd so'mdan 822,6 mlrd so'mga oshishi moliyaviy inklyuziyaning sezilarli darajada kengayganini hamda oilaviy tadbirkorlikning davlat siyosati va bank sektori tomonidan faol qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi. Kreditlarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi iqtisodiy imkoniyatlar geografiyasida farqlar saqlanib qolayotganini bildirsada, chekka tumanlarda ham yuqori o'sish sur'atlarining qayd etilishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari izchil kengayib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bois, kredit dasturlarini hududlarning iqtisodiy salohiyatiga mos ravishda differensiallashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

Ikkinchiidan, faoliyat tarkibida xizmatlar va ishlab chiqarish ulushining ortishi hamda qishloq xo'jaligi ulushining kamayishi iqtisodiyotda tarkibiy transformatsiya jarayoni chuqurlashayotganini ko'rsatadi. Bu holat Namangan viloyatida urbanizatsiya jarayonlari, ichki bozor talabining kengayishi, kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi va resurslardan samarali foydalanishga o'tishning kuchayganini anglatadi. Mazkur tarkibiy siljishlar kelgusida yangi ish o'rinlarini yaratish, daromadlarni diversifikatsiyalash va hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Uchinchiidan, investitsiya hajmining qariyb 80 mlrd so'mdan 420 mlrd so'mga oshishi oilaviy tadbirkorlikda kapitallashuv jarayonining kengayganini, texnologiyalashuv darajasining ortganini va ishlab chiqarish imkoniyatlarining mustahkamlanganini ko'rsatadi. Xususan, Namangan shahri, Kosonsoy va Pop tumanlarida investitsiya oqimlarining yuqori bo'lishi bu hududlarda biznes muhiti jadal rivojlanayotganini, chekka hududlarda esa iqtisodiy faollikning yangi o'sish nuqtalari shakllanayotganini tasdiqlaydi. Investitsiya oqimlarining kuchayishi



kambag'allikni qisqartirishda muhim strukturaviy ahamiyat kasb etib, aholining iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikning barqaror o'sishi bir qator institutsional omillar — kredit arizalarini ko'rib chiqish sifati, biznesni rasmiylashtirish jarayonlari, infratuzilma imkoniyatlari, mahalliy boshqaruv samaradorligi, mehnat resurslari malakasi va bozor talabining hududiy tafovutlari — bilan bevosita bog'liq. Shu bois, institutsional cheklolarni bartaraf etishda davlat siyosati innovatsion yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi zarur. Jumladan, raqamli kredit platformalarini kengaytirish, garov talablarini hududiy xatarlar profiliga moslashtirish, klasterlashuv mexanizmlarini kuchaytirish va biznes-inkubatsiya markazlari tarmog'ini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: (1) tumanlar kesimida sektorlar bo'yicha aniq ixtisoslashuv xaritasini ishlab chiqish; (2) oilaviy tadbirkorlarni raqamli savodxonlik, moliyaviy boshqaruv va marketing ko'nikmalariga tizimli o'qitish; (3) "bir hudud — bir mahsulot" modeliga mos kooperatsiya klasterlarini tashkil etish; (4) ishlab chiqarish va xizmatlar bozorlarining mahalliy integratsiyasini kuchaytirish; (5) banklar tomonidan mikromoliyalash portfeli sifatini yaxshilash maqsadida risklarni baholashning zamonaviy algoritmlarini joriy etish. Ushbu tavsiyalarni izchil amalga oshirish oilaviy tadbirkorlikni hududiy iqtisodiyotning mustahkam institutsional poydevoriga aylantiradi hamda kambag'allikni barqaror ravishda qisqartirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations Development Programme (UNDP). *Sustainable Development Goals (SDGs), Goal 1: End Poverty*. — New York, 2023.
2. World Bank. *Poverty and Shared Prosperity Report*. — Washington, DC, 2022.
3. OECD. *Inclusive Growth Framework: Reducing Regional Inequalities*. — Paris, 2021.
4. International Labour Organization (ILO). *Decent Work and Inclusive Labour Markets*. — Geneva, 2020.
5. Food and Agriculture Organization (FAO). *Family Farming and Rural Development: Global Assessment Report*. — Rome, 2021.
6. Banerjee, A.; Duflo, E. *Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty*. — New York: PublicAffairs, 2011.
7. De Soto, H. *The Mystery of Capital: Why Capitalism Triumphs in the West and Fails Everywhere Else*. — New York: Basic Books, 2000.
8. OECD. *Inclusive Entrepreneurship 2022: Policies for Strengthening Local Economies*. — Paris: OECD Publishing, 2022.
9. World Bank. *Doing Business Report 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. — Washington, DC: World Bank Publications, 2020.
10. International Labour Organization. *Decent Work and the Sustainable Development Goals*. — Geneva: ILO Publishing, 2019.
11. FAO. *Family Farming Knowledge Platform: Global Assessment Report*. — Rome: FAO Publishing, 2021.
12. Porter, M. E. *The Competitive Advantage of Regions*. — Boston: Harvard Business School Press, 1998.
13. Sachs, J. *The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time*. — New York: Penguin Books, 2005.
14. Tulyaganov, M. *Hududiy tadbirkorlikning rivojlanish omillari*. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
15. Isroilova, S. *Ayollar tadbirkorligi va oilaviy biznesning ijtimoiy-iqtisodiy roli*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>